THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

TIBBIYOTDA KAMQONLIK (ANEMIYA) KASALLIGI

Xayitboyeva Zulfizarxon Saparbayevna-Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi

Tel: +998902545349

Masardinov Xushnudbek Bozorboy o'g'li- Paxtaobod tumani tez tibbiy yordam bo'limi navbatchi feldsheri

xushnudbekmasardinov@gmail.com +99894 385 36 25

Annotatsiya.

Ushbu maqolada kamqonlik (anemiya) kasalligi, uning kelib chiqish sabablari va davolash usullari xaqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kamqonlik kasalligi, anemiyaning kelib chiqish sabablari, eritrositlar, tez charchash, trombositlar, qon hujayralari.

Xozirgi paytda dunyo bo'yicha uchraydigan kasalliklar turi juda ko'p. Bular orasida ko'p uchraydigan turlaridan biri kamqonlik (anemiya) kasalligi xisoblanadi. Bu kasallikni oldini olish borasida butun dunyoda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan bizning yurtimizda ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xattoki onaning ham sog'lig'iga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Maqsad sog'lom bolani dunyoga keltirish, hamda sog'lom insonni jamiyatga qo'shish. Buning misoli safatida YUQUMLI BO'LMAGAN KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI, SOG'LOM TURMUSH TARZINI QO'LLAB-QUVVATLASH VA AHOLINING JISMONIY FAOLLIGI DARAJASINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDAGI PQ-4063 son Prezident qarorini olishimiz mumkin.

[1]Boshqa ko'plab qon kasalliklaridan farqli o'laroq, kamqonlik juda keng tarqalgan: statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining chorak qismi anemiyadan aziyat chekmoqda. Yaxshiyamki, aksariyat hollarda gap kasallikning yengil shakllari haqida boradi, vaholanki ular ba'zida sog'lig'ingizga va kayfiyatingizga tahdid solishi mumkin.[1]

Anemiya nima?

[1]Har bir katta yoshli odamning tanasida taxminan 5 litr qon mavjud. Agar siz o‘z tanangizda qancha qon borligini bilmoqchi bo‘lsangiz, unda eslab qoling — bu tana vaznining 7 foizini tashkil qiladi. Qon o‘zining asosi bo‘yicha tarkibida tuzlar bo‘lgan suvdir, ammo uning eng muhim tarkibiy qismi qon ichida aylanib yuradigan hujayralardir. Ushbu hujayralar suyak iligida hosil bo‘ladi va ularning qiymatini ortiqcha baholash qiyin. Eritrotsitlar, ya'ni qizil qon tanachalarining o‘zigina o‘pkadan chiqadigan kislorodni tanamizning barcha to‘qimalariga yetkazadi va shu bilan nafas olishda qatnashadi. Aynan ular qonni qizil rangga kiritadi. Boshqalari, masalan oq qon hujayralari bizni mikrob va viruslardan himoya qiladi. Va nihoyat, uchinchi xil hujayralar — trombotsitlar, shikastlanganimizda qon ketishini to‘xtatadi. Agar qaysidir hujayra miqdori juda kamayib ketsa yoki o‘z funksiyasini bajarishdan to‘xtasa, sog‘ligimiz yomonlashadi.[1]

[1]Anemiyaning rivojlanishi ushbu hujayralardan biri — qizil qon tanachalari yetishmasligi bilan bog‘liq. Ammo, ba'zida qizil qon tanachalarining soni saqlanib qolgan holatda ularning asosiy tarkibiy qismi, kislorodni olib yuradigan gemoglobin oqsilining soni kamayadi. Natijada, qizil qon tanachalari «sifatsiz» bo‘lib qoladi va ularning funksiyalari, hatto qizil qon hujayralari soni o‘zgarmasa ham ishdan chiqadi. Shunday qilib, biz anemiya nimaligini bilib oldik — qizil qon tanachalari yoki ular tarkibidagi gemoglobin miqdori kamayganda yuzaga keladigan holat. Ushbu hujayralar nafas olgan kislorodimizni tanadagi barcha to‘qimalar va hujayralarga yetkazish uchun javobgardir, shuning uchun kamqonlik bilan organizm asta-sekin «bo‘g‘ila» boshlaydi.[1]

Anemiya yoki **kamqonlik** —qonning birlik hajmida **gemoglobinning** past kontsentratsiyasi bilan xarakterlanadi va shu bilan birga, inson tanasida, qizil qon hujayralari (**eritrotsit**) sonining kamayishi bilan bog’liqdir. Anemiya holati ikkinchi darajali bo’lib, turli kasalliklarning belgisi hisoblanadi. Ko’p kasalliklar, yuqumli va parazitar etiologiyali va saraton oldi holatlari va saraton mavjudligi kamqonlik bilan birga kechadi. Biroq, anemiya birlamchi holat sifatida organizmning gaz

almashinuvi buzilishini keltirib chiqaradi va oqibatda surunkali charchoq, uyquchanlik, bosh aylanishi, holsizlik, asabiylashish rivojlanadi. Og'ir hollarda anemiya shok holatlariga, gipotoniyaga (qon bosimining pasayishi), yurak toj tomirlari va o'pka yetishmovchiligiga, gemorragik shok holatiga olib kelishi mumkin.[4]

Davolash

Kamqonlikni davolashda asosan Vitamin B_{12} va temir qo'shimchalari ishlatiladi. Bundan tashqari, gemoglobin past darajada bo'lsa eritrositar massa quyish amalga oshirilishi mumkin. Umuman olganda, davolash strategiyasi anemiya turi va bemor holatining og'irligiga bog'liq.

- Davolash statsionar sharoitda olib boriladi.
- Taomnoma to'liq bo'lishi, yetarli miqdorda oqsil, temir moddasi va vitaminlar saqlashi kerak.
- Hayotiy ko'rsatkichlarga ko'ra, gemodinamikaning keskin buzilishi, gemoglobin miqdorining 70-80 g/l dan pasayib ketishida gemotransfuziyaga murojaat qilinadi.
- Anemiyaning individual shakllarini davolash etiologiya va patogenezni inobatga olgan holda amalga oshiriladi.
- O'tkir postgemorragik anemiya holatida dastlab qon ketishini to'xtatish kerak. Katta hajmda qon yo'qotishdan keyin temir preparatlari belgilanadi.
- Temir tanqisligi kamqonligini patogenetik davolash temir preparatlarini ichga qabul qilish (gemostimulin, ferropleks, tardiferon) yoki parenteral kiritishni (ferrum-lek, ferbitol, ektofer) nazarda tutadi.[5]

Kamqonlikda iste'mol qilinadigan maxsulotlar: jigar, qizil go'sht, lavlagi, anor, mayiz, piyoz va boshqalar

Olib borilgan kuzatishlar. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, gemoglobin miqdori yuqori bo'lgan insonlar, gemoglobin miqdori kam bo'lganlarga

nisbatan kamroq kasallikka chalinishi, imuniteti ham ancha yuqori ekanligini tajribalarda ko'rdik.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, anemiya kasalligini oldini olish uchun yuqorida keltirilgan tavsiyalarga amal qilib, buyurilgan ne'matlarni iste'mol qilsa qondagi gemoglobin miqdori ortib, kamqonlikni oldi olinadi. Bu esa kasalliklarni oldi olinadi. Imunitet kuchli bo'ladi. Natijada jamiyatga sog'lom avlod kirib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.https://kun.uz/news/2019/12/05/kamqonlik-bilan-qanday-kurashish-mumkin-sabablari-alomatlari-darajalari-va-davolash-usullari

2. https://lex.uz/docs/-4111365

3. PQ-4063 son Prezident qarori

4.https://mymedic.uz/kasalliklar/qon-kasalliklari/anemiya/

5.https://med360.uz/kasalliklar/kamqonlik/

6. Kuzatuv natijalari